



UO'K:13:929"18"/"19"(575.1)

Iroda TURDIYEVA,
Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: irodamaxmarajabovna@gmail

F.f.d., prof. G.Masharipova taqrizi ostida

THE ROLE OF JADID SOCIAL REFORMS IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL EDUCATION AND UPBRINGING

Annotation

This article examines the impact of the Jadid movement's social reforms on the development of the national education and upbringing system. It highlights the educational ideas proposed by the Jadids, their alignment with modern pedagogical principles, and the lasting influence of their intellectual legacy on contemporary education.

Key words: Jadids, social reforms, national education, upbringing, enlightenment, historical heritage.

JADIDLAR IJTIMOIIY ISLOHOTLARINING MILLIY TA'LIM-TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidchilik harakati doirasidagi ijtimoiy islohotlarning milliy ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirish va rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Jadidlar ilgari surgan ma'rifiy g'oyalari va ularning zamonaviy ta'lim tamoyillari bilan uyg'unligi tarixiy va tahliliy asosda yoritiladi. Shuningdek, ularning merosi bugungi ta'lim jarayoniga qanday ta'sir qilayotgani muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Jadidlar, ijtimoiy islohotlar, milliy ta'lim, tarbiya, ma'rifat, tarixiy meros.

РОЛЬ ДЖАДИДСКИХ СОЦИАЛЬНЫХ РЕФОРМ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Аннотация

В статье анализируется вклад джадидского движения в развитие национальной системы образования и воспитания. Рассматриваются просветительские идеи джадидов, их стремление к модернизации учебных процессов, а также влияние их наследия на современную образовательную политику.

Ключевые слова: Джадиды, социальные реформы, национальное образование, воспитание, просвещение, историческое наследие.

Kirish. Jadidlar nafaqat o'z davrining ilg'or islohotchilari, balki hozirgi ta'limning mafkuraviy va metodik ildizlariga asos solgan buyuk ma'rifatchilardir. Ularning ijodiy shaxsni shakllantirishga qaratilgan g'oyalari bugungi o'zbek ta'limida, pedagogik yondashuvlarda va yosh avlod tarbiyasida o'z aksini topmoqda. Shu jihatdan, ularning merosi abadiy va dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz olimlaridan jadidchilikka oid M.A.Tojibouva [1], S.A'zamxo'jayyev [2], Q.Rajabov [3], D.Alimova [4]larning tadqiqotlarida jadid mutafakkirlari ma'naviy merosining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qarashlari, ularning jadid ma'rifatparvarligidagi alohida o'rni qisman o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiylik, tasniflash, komparaivistika va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Jadidchilik harakati bo'yicha ko'plab tarixiy va ilmiy manbalar mavjud bo'lib, ularning har biri harakatning turli jihatlarini ochib beradi: Fitrat va Behbudiy asarlari – jadidchilik harakatining asosiy nazariy va amaliy jihatlarini ochib beruvchi muhim manbalardir. Fitratning pedagogik qarashlari zamonaviy ta'lim tamoyillari bilan bog'liq bo'lib, ta'limning innovatsion yondashuvlarga asoslanishini ilgari surgan [5].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar – bugungi kunda jadidchilik g'oyalari ta'lim sohasida qanday qo'llanilayotgani bo'yicha turli ilmiy maqolalar va tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, kompetensiyaviy yondashuv, ta'limning integratsiyalashuvi, texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy yetish kabi jihatlar jadidlarning ilgari surgan g'oyalari bilan bog'liq.

A.Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari Sharq mumtoz adabiyoti an'alarining davomi bo'lishi bilan birga, XX asr talablariga moslashtirilgani, milliyalashtirilgani, zamonaviy nuqtai nazardan mazmun, shakl, til va uslub jihatidan turlicha qayta ishlangani bilan diqqatga sazovor. Asarda "Axloq" masalasining kitob boshiga qo'yilishi ham yuqoridagi fikrimiz isbotiga xizmat qiladi. Shuningdek, kitobda "Xulq", "Yaxshi xulq", "Yomon xulq", "Tarbiya", "Badan tarbiyasi", "Fikr tarbiyasi", "Axloq tarbiyasi", "Fatonat", "Diyonat", "Islomiyat", "Say" va "ayrat", "Riyoat", "Shijoat", "Ilm", "Sabr", "Hilm", "Intizom", "Miqyosi nafs", "Vijdon", "Vatanni suymak", "Hayo", "Xavf va rajo", "Adolat", "Sadoqat" va h.k. [6] mavzular ostida milliy axloqning asoslari talqin yetiladi.

Jadidlar harakati xususida adabiyotshunos olim Begali Qosimov quyidagi fikrlarni bayon etgan: "Jadidchilik oqim yemas, harakatchilik. Ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakatchilik. Jadidchilik: jamiyatning barcha qatlamlarini jalb yeta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib

xizmat qildi; mustaqillik uchun kurash olib bordi. Jadidlar g'ayrati va tashabbusi bilan dunyo ko'rgan Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi yedi; maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi" [7].

Jadidchilik harakatining zamonaviy ta'lim va taraqqiyotga qo'shgan hissasini quyidagi jihatlar orqali baholash mumkin: innovatsion ta'lim tizimi – jadidlar ilgari surgan yangi usul maktablari bugungi interfaol va kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta'lim tizimiga yo'l ochdi.

Ilm-fan va texnologiyaga ye'tibor – jadidlar ta'lim jarayonida matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi fanlarni o'qitishni taklif yetgan bo'lsa, bugungi ta'lim tizimi ham STEAM (science, technology, engineering, arts, and mathematics) kabi yo'nalishlarni rivojlantirishga katta ye'tibor qaratmoqda.

Mamudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi qahramoni bo'lgan ziyoli obrazi ham jadidlar dardi, orzu-maqsadlarini o'zida jamlagan va bularni xalqqa yyetkazishga xizmat qilgan obrazdir. Ziyoli tomonidan boyga kuyunchaklik bilan aytilgan quyidagi so'zlar fikrimiz dalilidir: "Hozir yangi va boshqa bir zamondur. Bu zamong'a ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yyeri va asbobi kundan-kun qo'ldan ketgandek, axloq obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur. Buning uchun biz musulmonlarni o'qumoqg'a sa'iy qilmoqimiz lozimdur, vaholanki, dini sharifimiz har nav' naf'lik ilm o'qumoqni beshikdan mozorg'acha bizlarg'a farz qilgandir" [8].

Fitratning 1920-yilda yaratilgan "Chin sevis" dramasi Hind xalqining ingliz istilochilariga qarshi mustaqillik uchun olib borgan kurashlari haqida. Qahramonlardan biri Yevropada o'qib kelgan ziyoli Karimbaxsh obrazidir. U bir vaqtlar Yevropani maqtar yedi. Yendi yesa fikri o'zgargan: "Ovrupada bilim bor, lekin insof yo'q. Ovrupaning bilimi qoplonning tishi, tirnog'i kabi bir narsadir. Kuchsizlarni yirtib, yyemak to'g'risida ko'p ish ko'rmishdir...", - deydi xotini Fotimaxonim bilan suhbatida. Xotini Yevropani maqtash fikridan nega qaytganini so'raganda yesa: "Qaytganim yo'q. Ovrupa ilmlarini o'rganmak, albatta kerakdir. Ovrupada o'qumoq, ovruपालilarni insofli, adolatli deb maqtash uchun yemas, unlardan o'zimizni saqlagani, tishli, tirnoqli bo'lmoq uchun kerakdir" [9].

Jadidchilik harakati zamonaviy ta'lim tizimiga ulkan ta'sir ko'rsatgan bo'lib, uning ilg'or g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy yetish, ilm-fanni rivojlantirish va milliy qadriyatlarini saqlab qolish kabi jihatlar jadidchilik g'oyalari bilan uyg'unlashadi. Ta'lim tizimining rivojlanishi, yosh avlodni ilm-fan va taraqqiyotga yo'naltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, jadidlarning ma'rifatparvarlik tamoyillari bu borada muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov ta'kidlaganidek, "Bugungacha Ovrupo xalqi osmonga uchar yekan, bizda soch va soqol nizolari, ovruपालilar dengiz ostida suzar yekan, bizda uzun va qisqa kiyim janjallari, Ovrupo shaharlari butun yelektrik bilan isitilur va yoritilur yekan, bizda maktablarda jo'g'rofiya va tibbiyot o'qitish-o'qitmaslik ixtiloflari... davom yetadi" [10].

Jadidlar ijtimoiy islohotlarining milliy ta'lim-tarbiyani rivojlantirishdagi roli – bu mavzu O'rta Osiyoda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuz bergan ma'rifiy harakat – jadidchilik harakatining mohiyatini ochib

berishga qaratilgan. Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmon xalqlari, xususan, Turkiston o'lkasida paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakatdir. Harakat nomi arabcha "jadid" (yangi) so'zidan olingan bo'lib, ularning asosiy g'oyasi – "usuli jadid", ya'ni yangi usulda ta'lim berish edi. Jadidlar – yoshlar, bu yesa yoshlar harakati yedi. Adiblarning yosh tarkibini o'rganilganda, ma'lum bo'lishicha, mashhur jadid va yoshlarning suvimli yozuvchisi Cho'lpon 1910 yilda 13 yoshda, Buhbudiyning yoshi yesa 30 oshiqroq bo'lgan. O'sha harakat ishtirokchilari faqat yoshlardan iborat yekani ma'lum bo'lgan. Bu yoshlar intulluktual jihatdan rivojlangan va Turkistonning jahon taraqqiyotidan orqada qolayotgani sabablarini tushunardi. Shu o'rinda qayd yetish joizki, ma'rifatparvarlikning chuqur ildizlari bo'lib, faqat jadidchilik ko'rinishida zuhur bo'lgani yo'q. Uning ma'rifatparvarlik ildizlari ham bor yedi va jadidchilik ushbu harakatning akkumulyatori – quvvat yig'uvchisi bo'ldi. Albatta, u oldingi adabiyot, oldingi falsafa yutuqlariga asoslangan. Jadidlar o'zini ushbu falsafaning tahlilchilari sifatida ham namoyon qildi. Bilamizki, mashhur ma'rifatparvar Ahmad Donish, shoirlar Muqimiy, Furqat, Hamza, Ubaydulla Zavqiy, Muhammad Bayoniy, Abay Qo'nonbouv va olim Cho'qon Valixonov islohotning hassos tarafdorlari bo'lgan, ular boshi burk ko'chadan chiqishni nafaqat ma'rifatda, qolavursa, turkiy xalqlar birligida ko'rgan. O'tmishdoshlaridan ancha oldinlab kutgan va ma'rifatparvarlikdan siyosatga o'tgan jadidlar shu zaminda unib chiqqan.

Jadidlar har qanday qiyinchilik va tazyiqlarga qaramay, usuli savtiya maktablarini ochishga harakat qildilar. Ularning maktab va ta'lim tizimini isloh yetish yo'lidagi harakatlari markazida dastlab ibtidoiy maktablar turdi. Buxorolik Niyoziy Rajabzoda ismli muallim «Oyna» jurnalining 1914 yil 38- sonida ye'lon qilgan "Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiy yo'li" degan maqolasida ibtidoiy maktabni isloh yetish fikrini olga surib, bunday yozdi: "Dunyoda mavjud millatlar taraqqiyini ibtidoiy maktabdan boshlarlar. Haqiqatan, taraqqiy va taolo uchun birinchi yo'l va asos maktabdur. Maktab isloh qilinsa, umum ishlar isloh va tartibga kirdi, deb bo'ladi. Chunki, kamroq bo'lsa ham, isloh qilingan maktabdan chiqqan bolalar islohpavar bo'ladurlar" [11].

Albatta, ular ayni maktablarni ustuvor ahamiyat burishi zarur bo'lgan muassasa dub tushungan, jadidlar harakatini kung miqyosli bo'lgan duyish xatodan boshqa narsa yemas, chunki aholining aksariyat qismi musulmon ruhoniylari ta'sirida bo'lgan, jadidlar maktablarida tafakkuri rivojlangan va bu maktablarning istiqbolini tushungan kishilar farzandlari ta'lim olgan. Jadidlar maktablarini Uvropa maktablariga buvosita o'xshash bo'lgan, duyish qiyin, lukin ularda o'sha maktablarning dastlabki namunalari bor yedi. Birinchidan, ular partalar bilan jihozlangan, bu maktablardagi bolalar musulmon maktablaridagi singari urda o'tirmagan va o'qituvchilar ularning boshi ustida kaltak o'ynatib turmagan. Jadidlar maktablarida kitoblar, kuyinchalik yesa xaritalar bo'lgan.

Bu o'rinda darsliklar nashr qilishda Mahmudxo'ja Buhbudiy va Munavvarqorining xizmatlarini alohida ye'tirof yetish joiz. Dastlab darsliklar bo'lmagan. Ular Rossiyadan olib kulingan va tatar maktablariga mo'ljallangan bo'lgan. Ismoil Gasprinskiy bu masalada katta yordam ko'rsatgan.

Munavvarqori usuli jadid maktablari ochish bilan ish bitmasligini, darslik va o'quv qo'llanmalari havodek

zarur yekanligini juda yaxshi bilardi. Shuning uchun xam u dastlabki yillarda Istanbul, Qozon va Qrimdan diniy va dunyoviy o'quv risolalari, alifbo va o'qish kitoblari oladi. U 5 sinfli ilk usuli jadid maktabi qoshida ikki sinfli rushdiya (yuqori sinf) ochadi. Bu maktab butun Turkiston uchun «Namuna maktabi» sifatida shuxrat qozondi. Munavvarqori o'lkani qoloqlikdan, millatni mustamlaka zulmidan qutqarishning birdan-bir yo'lini ilm-ma'rifatda, zamonaviy texnikani yegallashda ko'rdi. «Namuna maktabi»ni birinchi bo'lib bitirgan sobiq shogirdlaridan Afandizoda uning bu faoliyati haqida quyidagilarni yozdi: «Munavvarqori Turkistonni istilo yetganlarga qarshi kurashning yagona yo'li ta'lim deb bildi. Xalqni isyonga chorlamadi. Bizning g'alabamizning birinchi sharti va asosi bilim va texnikadir», - degan fikrlari bilan biz

yoshlarga tahsilni Istanbulda davom yetgirish kerakligini ta'kidlar yedi» [12].

Xulosa va takliflar. Jadidlarning milliy o'zlikni anglashdagi qarashlari, o'zlarining jamiyat va madaniyatni yangilashga qaratilgan islohotlarida, milliy o'ziga xoslikni saqlash bilan birga, uni rivojlantirishning zaruriylikini ta'kidladi. Jadidlar, musulmon jamiyatlari uchun, milliy tilni va madaniyatni rivojlantirish, o'zining tarixiy merosini ye'tirof yetish va uni zamonaviy yehtiyojlarga moslashtirishni asosiy vazifa deb bildilar. Jadidlar zamonaviy bilim va texnologiyalarni jamiyatga kiritish orqali milliy taraqqiyotning yangi yo'llarini ochish va mustaqil, zamonaviy jamiyatni barpo yetish yo'lida harakat qilishdi.

ADABIYOTLAR

1. Тожибоева М.А. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт анъаналари. - Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент, 2017. - 284 б.
2. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти миллий-демократик давлатчилик қурилиш тажрибаси. - Тошкент, 2012.
3. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. - Тошкент: Маънавият 2002.
4. Алимова Д.А. Историческое мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана // Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. - Тошкент: Фан, 1996.
5. Fitrat, A. Hind ixtilolchilari. Toshkent, 1923.
6. Авлоний А. Икки жилдлик. Иккинчи жилд. Б.Қосимов. – Тошкент: Маънавият нашриёти, 1998.
7. Қосимов Б. Ўзбек адабиёти ва адабий алоқалари тарихи. - Т.: Фан ва технология, 2008. - В. 62.
8. Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар. - Т.: Маънавият, 1999. - 43-б.
9. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 3-жилд. - Т.: Маънавият, 2003. - 10-б.
10. Abdurashidxonov M. Jadidlar. Nashrga tayyorlovchi S. Xolboyev. - T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. - 18-b.
11. "Oyna" (1914-1915 y). Nashrga tayyorlovchilar: Naim Norkulov, Kamoliddin Rabbimov.-T.: "Akademiya", 2001. - 3-b.
12. Afandizoda Munavvarqori, Yosh Turkiston, 1934 y., № 50, yanvar.